



## YOSHLAR TARBIYASIDA JAHON TAJRIBASI VA JADID ADABIYOTINING O'RNII

To'xtayeva Shahinabonu Shuxrat qizi

BuxDPI 3-bosqich talabasi

shaxinatuxtayeva20@gmail.com

+998914455424

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17279093>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- sentabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28- sentabr 2025 yil

Nashr qilindi: 30- sentabr 2025 yil

### KEYWORDS

tarbiya, yoshlar, AQSh, Yaponiya, Xitoy, jadidchilik, Abdurauf Fitratning "Oila" , Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq ", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarlari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasi masalalari, bunda jahon tajribasi AQSh, Yaponiya, Xitoy misolida va jadid adabiyoti namoyondalari asarlarining o'рни Abdurauf Fitratning "Oila" , Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq ", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarlari misolida tahlil qilingan.*

Insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa - yoshlar tarbiyasi masalasi bo'lib kelgan. Barcha alloma, mutafakkirlar, millatning ziyolilari jamiyat rivoji, mamlakat farovonligi, tinchlig-u xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog'laganlar. Tarbiya so'zining ma'nolari ko'p bo'lsa-da, milliy an'analardan kelib chiqsak, tasavvurda, avvalo, uning axloqiy sifati uyg'onadi. Boisi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo'yishgan. Bu bejiz emas. Qayerda tarbiya masalasini ta'lim bilan, milliy qadriyat, an'analar, mentalitet bilan uzviy bog'liqlikda hal etishga harakat qilingan bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'lgan. Yoshlar ta'lim - tarbiyasiga e'tiborsizlik qilingan joyda esa inqirozlar, milliy o'pirilishlar sodir bo'lavergan. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida o'ziga xos va mos milliy, diniy qadryatlarga asoslangan xalqimizning tarbiya borasidagi azaliy an'analari "ommaviy madaniyat", mentalitetimizga yot g'oya va qarashlar ta'sirida asl mohiyatini yo'qotib borayotgani barchamizni tashvishga soladi. Ushbu jarayonga, ya'ni tarbiya masalasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor qaratmasak, ertaga kech bo'lishi, tuzatib bo'lmas darajadagi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Islom ta'imotida yoshlar tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Hadisi sharifda: "Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar", deyilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Milliy pedagogikamiz asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat "Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e'tibor kerak bo'lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiyalashimiz lozim" degan edi. [7,18] O'z o'rnida shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda bo'lajak pedagog va psixologlarga ta'lim jarayonida xorijiy tajribalarni o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fanidan jahon xalqlarining maktab, tarbiya va pedagogik fikrlar rivojida iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning tajribalaridan foydalanib o'zimizning milliy urf-odatlar, qadriyatlarga taqqoslagan holda amalga oshirish muhimdir. Fuqarlarda zamon talablariga mos fazilatlarini qaror toptirishda AQSh da fuqaro tarbiyasida shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina yetishadi, kimgadir va nimagadir orqa qilish emas, balki o'z kuchiga tayanish, "amerika orzusi" ga ishonch kabi fazilatlar yetakchilik qilganini ko'ramiz. AQShda milliy g'oya vazifasini "amerika orzusi" bajarmoqda. AQShda vatanparvarlikni shakllantirish tarixy, madaniy, axloqiy, mafkuraviy va hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. AQSh qudratining asosi fuqarolarning vatanparvarligidir. Vatanparvarlikning markaziy g'oyalari erkinlik, tenglik va adolatdir. AQSh jamiyatining hayoti ana shu uch g'oyaga asoslanadi.

Yaponiyada fuqaroni tarbiyalash - "axloqiy tarbiya" tizimi "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim", "davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat", "fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash" tizimi vazifasini o'taydi. Maktablarda guruhiy birdamlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Muhimi, boladan umumiy ishda o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamiyat muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. "Ideal yaponning fazilatlarini" deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 fazilat 4 ta guruhga bo'lib tarbiyalanadi. Bular: 1) shaxsiy sifatlari: erkinlik, o'ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo'lish, o'z hohishlarini idora qila olish; 2) oila boshlig'iga xos sifatlari: o'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlari: o'z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlari: Vatanga sodiq bo'lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo'lishni o'rgatadi.

Xitoyda Konfutsiylik axloqining 5 asosiy ustuni etib yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlik kabi fazilatlar belgilab olinadi va amal qilinadi. Yoshlar tarbiyasi "Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish" g'oyasi asosida tashkil etiladi. Yoshlar shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg'un tutishga o'rgatib boriladi.

**Tahlil va natijalar:** Xalqimiz ham yoshlar tarbiyasi masalasida o'z tarixiy tajribasiga, o'z qoida va g'oyalariga ega. Ushbu qarashlar bir qator asarlar uchun ham mavzu bo'lgan. Va aynan shunday asarlar tarixning turli ayanchli sinovlariga qaramay yanada ommalashib bormoqda. Jumladan jadid adabiyoti. Mamlakatimizda qatag'on qurbonlari bo'lgan otabobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xalqimizning noyob adabiy - badiiy merosi bugungi kunda yosh avlodga ulkan ma'naviy kuch beradi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi". [1,3] Jadid adabiyotining bir qator namoyondalari asarlarida yoshlar, farzand tarbiyasi masalasi asosiy o'rin egallaydi. Jumladan, Abdurauf Fitratning "Oila" asari. Asar 2 qismdan iborat bo'lib, birinchi qism uylanish masalalariga bag'ishlangan, 2-qismda esa farzand tarbiyasi masalasi aks ettirilgan. "Oila" asaridagi farzand tarbiyasi bayoni alohida ajralib turadi. Shu o'rinda ota-

bobolarimiz tarbiyasi, ularning aqliy salohiyatini hozirgi davr bilan solishtiradi va har bir muallif yuztadan ortiq kitob yozganki, bugun ularning soyalari ham bizning o'rtamizda topilmasligini aytadi. "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u tan, aql va axloqdir",- deydi Abdurauf Fitrat. U tarbiya haqidagi qadimiy fanlar asosida uni uch shaklda: badan tarbiya, aqliy va axloqiy tarbiya deb anglatgan. Biroq ularni bir-biridan ajratib ham bo'lmaydi. Ular o'zaro shunday bog'liqdirki, biriga ziyon yetsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo'ladi. Biriga foyda yetsa, boshqalari ham undan bahramand bo'ladi. Tarbiyaning har bir qismi tug'ilishdan yetti yoshgacha avval ota - ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o'z boshiga tushadi. Badan tarbiyasi go'dakning jismini har xil odatlardan saqlab, asta-sekin kamolotga yetishtirish demakdir. Bunda farzand tug'ilgan kundan boshlab unga qanday g'amxo'rlik qilish, uni ovqatlantirish, yuvintirish, bolalarda uchraydigan va ularning nobud bo'lishiga yoki majruh bo'lib qolishiga sabab bo'luvchi xastaliklar, ulardan saqlanish, emlanish masalalari ham aks ettirilgan. Aqliy tarbiya ham inson uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aqliy tarbiya odam aqlini tarbiyalash, odam zehni, aql-idrokini kamolga yetkazishdir. Abdurauf Fitrat inson aqlining faoliyatini misollar bilan tushuntiradi. Turli holatlar orqali inson ongining faoliyatini ochiqlab berishga harakat qiladi. Uning fikricha, to'g'ri hukm chiqarish uchun 3 ta shart mavjud. Bular 2 ta to'g'ri hukm, tartib va to'g'ri qarorga o'tish. Muhokamaning bexato bo'lishi uchun esa 3 ta shart mavjud: isbot, muhokama, qaror. Bob davomida u iroda va ixtiyorga to'xtalib, ular 5 ta holatning, tasavvur, muhokama, solishtirish, qaror va ijro, natijasi ekanligini aytadi. Irodaning sifatlari esa quyidagilar: sur'at, ikkilanish, shiddat, zaiflik, matonat va matonatsizlik. Tarbiya turlari ichida eng muhimi bu - axloqiy tarbiyadir. Bolaning axloqiy tarbiyasi talab darajasida bo'lmasa, aqli hamda jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdegilar zarariga ishlatadi. Umuman olganda, Fitratning "Oila" asari tom ma'noda yosh avlod uchun hayotiy qo'llanma bo'luvchi asardir. Uni o'qigan kishi nafaqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, uni qanday qo'lga kiritish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir - jadid Abdurauf Fitratning "Oila" asari Turkiston milliy uyg'onishida benihoya katta rol o'ynadi, deyish mumkin. Ayni paytda u hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajoyib axloqiy - ma'rifiy risola sifatida alohida e'tiborga molik.

Yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega asarlardan yana biri Abdulla Avloniyning "turkiy guliston yoxud axloq" asaridir. Unda tarbiya masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bolalarni ilmi va tarbiyali qilib tarbiyalash borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan esa qaytaruvchi bir ilm ya'ni axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xulqlar majmui. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar yomon bo'lib tug'ilmaydi. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Avloniy ham tarbiyani uch guruhga ajratadi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Yosh bolalarda fikrlash iqtidorini shakllantirish, fikr tarbiyasi - benihoya zarur va muqaddas bir vazifa hisoblanadi. Bolalarning qanday fikrlashi pedagogning o'zining fikrlashi va saviyasiga bog'liqdir. Agar pedagogning o'zi har tomonlama bilimli va yetuk shaxs bo'lsa, u tarbiya qilayotgan bolalar ham shunday fazilatlariga ega bo'ladi. Farzandlar ham turlicha bo'ladi. Onasining barcha dardlariga

va qiyinchiliklariga sherik bo'ladigan farzandlar va baxtsizligida yolg'iz tashlab ketadigan farzandlar ham topiladi. Vatanning go'zal tabiatini, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlar ham afsus oramizda uchrab turadi. Avloniy bolalarni o'zaro do'st, hamkor bo'lishga chorlar ekan, bu dunyoda xiyonat va soxtalik degan illatlar ham borligini ma'lum qiladi. Yoshlarni unday illatlardan uzoq yurishga chorlaydi. Chin do'st bo'lgan kishi boshingga kulfat va qayg'u kelgan vaqtlarda ham sening yoningda turadi. Sringni noahil va nodon kimsalarga aytmaydi. Uni o'z siri kabi himoya qiladi. Aybingni orqangdan hech qachon so'zlamaydi, zarur bo'lgan paytda uni yuzingga aytadi. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Abdulla Avloniyning mazkur asari orqali biz bir qancha axloqiy fazilatlar haqida boy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Asarda barcha axloqiy sifatlar mohirlik bilan tushunarli qilib namoyon etilgan. Abdulla Avloniyning yoshlarimiz tarbiyasi haqidagi quyidagi so'zlari e'tiborga molikdir: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi? Degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir... Xulosa shuki, tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". [2,84-85]

Farzand tarbiyasini o'z asarlarida yoritgan ma'rifatparvarlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy hisoblanadi. Behbudiy o'zining "Padarkush" asarida ilm, ma'rifat umuman xalq ta'limi va ilmiy zaminga ega bo'lgan pedagog masalalari keskin qo'ygan. U bu sarda nafaqat farzand tarbiyasi uchun oila, balki pedagog ham zarur ekanligini tushuntirib bergan. Bu asarda har bir oilada uning egalari bo'lmish ota-onada ilmiy salohiyati ham yetuk bo'lishi farzand tarbiyasiga juda katta yordam ekanligini aytib o'tgan. Behbudiy bu asarni shunday mahorat bilan yozganki, ta'lim va tarbiya o'chog'i bo'lgan oilada, uning muhitida, inson ongida ma'rifat va madaniyat va dunyoqarash keng bo'lishi kerakligi yoritib berilgan. Agar farzand tarbiyasida ota-ona qattiqqo'lligi, uning yetuk inson bo'lib yetishishida hayrixoh bo'lmas ekan xuddi asardagidek fojia yuz berishi mumkin. Asarda maktab va oilaning tarbiya sohasidagi qarashlari bir xil bo'lmasa, bolani ota-onalar boshqa tarafga, pedagog boshqa tarafga tortadigan bo'lsa, farzandning tarbiyasi izdan chiqadi degan axloqiy tushuncha ilgari surilgan. Behbudiy asarlarida shuni ta'kidlab o'tadiki, farzand tarbiyasida xalqning ham o'rni katta ekanligini ta'kidlab ketgan. Siz-u bizga ma'lumki, ushbu asarda otaning nodonligi, farzandiga ta'lim berishdan ko'ra pul topishni ustun qo'yganligi o'z boshini o'zi yeyishiga sabab bo'ldi, ya'ni bola tarbiyasizligi sabab o'z uyiga o'g'irlikka tushdi va "padarkush" ota qotili degan nomga erishdi. Otaning eng katta xatosi farzandining ta'lim olishga yo'l qo'ymaganligi va ta'limni tarbiyadan ajratganligi bo'ldi. Amerikalik olim E.Olvort "Padarkush" dramasi haqida "Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o'z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to'g'ri yo'ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta'sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to'g'ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko'rib yig'laydilar, mamlakat yoshlarini o'qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar deb ta'kidlaydi. [3, 157] Yoshlar tarbiyasi

borasida ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi so'zlari hozirgi vaqtda ham o'z ta'sirini yo'qotmagan: "To'y va ta'ziyag'a sarf qilaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'liga sarf etsak, anqarib ovro'poyillardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizga davom etsak, din va dunyoga zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur". [4, 140]

**Xulosa:** Xulosa o'rnida biz buyuk millat sifatida dunyoda o'z o'rnimizga ega bo'lishni istasak, buyuk tariximiz bilan bir qatorda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni chuqur o'rganib, ularning o'gitlariga amal qilmog'imiz, Vatan taraqqiyoti uchun jiddu-jahd qiladigan yangi avlodni tarbiyalamog'imiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev. Jadidlar to'plami kitobidan Maxmudxo'ja Bexbudiy T.2022-yil 3-bet.
2. Abdulla Avloniy. Jadidlar to'plami - "Yoshlar nashriyoti uyi, 2022 84-85-betlar.
3. Ahrorova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning pdegogik qarashlari va ma'rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997. 157-bet.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Jadidlar to'plami- "Yoshlar nashriyot uyi" T.2022 140-bet
5. A.Fitrat "Oila"- Cho'lpon nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi,T.;2013.
6. Абдулла Авлоний "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ" - Т.: «Пар. Соц. революц», 1917.
7. Abdurauf Fitrat "Yurt g'ayg'usi"- "Fan va turmush"; 1990.

INNOVATIVE  
ACADEMY